# Xalq so'zi

O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2025 yil 11-fevral, № 29 (8924) Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


## ATOM ENERGETIKASI SOHASIDAGI USTUVOR VAZIFALAR BELGILANDI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 10-fevral kuni atom energetikasi sohasida amalga oshirilayotgan ishlar va kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.**

Aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining o'sib borayotgan ehtiyojini ta'minlash uchun mamlakatimizda energetikaning barcha manbalari ishga solinmoqda. An'anaviy generatsiyadan tashqari so'nggi yillarda qariyb 4 gigavattli muqobil quvvatlar ishga tushirildi va "yashil" energiya ulushi 16 foizga yetdi.

Kelgusi besh yilda yana 25 gigavattli qayta tiklanuvchi energiya manbalari barpo etiladi. Bularning hisobiga yiliga 64 milliard kilovatt-soat "yashil" energiya olinadi. Umuman, 2030-yilga borib yurtimizda jami generatsiyada "yashil" energiya ulushini 50 foizdan oshirish maqsad qilingan.

Ayni paytda raqamli texnologiyalar, elektromobillar, elektr jihozlar, sun'iy intellekt, mayning kabi tarmoqlarning rivojlanishi energiyaga bo'lgan talabni keskin oshirmoqda. Shu bois ko'plab davlatlar yangi turdagi energiya quvvatlariga o'tish yo'llarini izlayapti. Yer qa'ridan qazib olinadigan yoqilg'ilar o'z o'rnini qayta tiklanuvchi manbalarga bo'shatib beryapti. Bugunga kelib dunyodagi jami generatsiyaning 42 foizi muqobil energiyadir.

Uzoq yillik quvvatlarni barpo etishda atom energetikasi maqbul hisoblanadi. Hozirgi kunda dunyoda 375 gigavattli 417 ta atom reaktori ishlatilmoqda. Yana yangi stansiyalar qurilyapti, ko'p davlatlar atom energetikasini o'zining rivojlanish strategiyasiga kirityapti.

Mamlakatimizda uran zaxirasi borligidan foydalanib, uzoq muddatga mo'ljallangan quvvat tashkil etish rejalashtirilgan. Xususan, kichik quvvatli reaktorlar barpo etish loyihasi ishlab chiqildi. 2024-yil 5-dekabrda Samarqand shahrida atom energiyasidan foydalanish masalalari bo'yicha xalqaro konferensiya o'tkazildi.

Yig'ilishda mutasaddilar atom energetikasini rivojlantirishga oid qilinayotgan ishlar bo'yicha axborot berdi.

Davlatimiz rahbari bo'lajak stansiya va tizimda ishlaydigan mutaxassislarni hozirdan tayyorlash, xavfsizlikni Xalqaro atom energiyasi agentligi talablari darajasida ta'minlash bo'yicha topshiriqlar berdi. Bunday texnologiyalar iqtisodiyot raqobatdoshligini oshirib, uzoq muddatli o'sish sur'atlari uchun munosib zamin yaratishi ta'kidlandi.

**O'zA.**

# ULUG' MUTAFAKKIR DAHOSIGA EHTIROM

**9-fevral kuni butun mamlakatimiz va dunyo miqyosida Sharq Uyg'onish davrining yorqin namoyandasi, buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy tavalludining 584-yilligi keng nishonlandi.**

### Shukuh

Poytaxtimizdagi Adiblar xiyobonida bo'lib o'tgan adabiy-ma'rifiy tadbirda ilm-fan va san'at namoyandalari, turli vazirlik va idoralar, ijodiy uyushmalar, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, navoiyshunos olimlar, ma'naviyat targ'ibotchilari, yoshlar qatnashdi.

Tadbirda so'z olganlar ulug' shoir ijodining bezavol va betakrorligi, tarbiyaviy ahamiyati haqida to'xtalib, uning jahon adabiyotida tutgan o'rni, ilm-fani rivojiga qo'shgan munosib hissasi haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Darhaqiqat, Alisher Navoiyning ohori to'kilmas ijod namunalari qariyb olti asrdan buyon insoniyatga ezgulik va yaxshilik ziyosini taratib kelmoqda.

Tadbirda Vengriyaning O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Yojef Roja buyuk mutafakkirning hayoti va ijodi dunyo xalqlari uchun ma'naviy kamolot timsoli sifatida yuksak e'zoz va e'tirofga sazovor ekanini ta'kidladi. Yurtimiz oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan xorijlik talabalar tomonidan Alisher Navoiyning g'azal va ruboiylaridan namunalar o'qildi. Taniqli san'atkorlar tomonidan ulug' shoir g'azallariga bastalangan kuy-qo'shiqlar yangradi.

Alisher Navoiy haykali poyiga gulchambarlar qo'yilib, uning dahosiga hurmat bajo keltirildi.

*Buyuk bobomiz tavalludining 584-yilligi tadbirlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlardagi ta'lim muassasalari, madaniyat maskanlari, harbiy qismlar va mahallalarda ham ko'tarinki ruhda o'tkazildi.*

**"Xalq so'zi".**



Юнус БЎРИЕВ олган суратлар.



# Alisher Navoiy va Sharq Renessansi

**Navoiy viloyatida "Alisher Navoiy va Sharq Renessansi" an'anaviy IV xalqaro simpoziumi bo'lib o'tdi.**

*Viloyat Ma'naviyat va ma'rifat markazida tashkil etilgan yalpi majlisda Osiyo, Afrika, Yevropa va Amerika qit'alari mamlakatlaridan ko'plab taniqli olim va tadqiqotchilar ishtirok etdi.*

*Davlatimiz rahbarining simpozium ishtirokchilariga yo'llagan tabrigini Prezident maslahatchisi Xayriddin Sultonov o'qib eshittirdi.*

### Anjuman

Tabrikda ta'kidlanganidek, jahon adabiyoti va tafakkuri tarixida o'chmas iz qoldirgan Alisher Navoiyning serqirra ijtimoiy-siyosiy, ijodiy, ilmiy-ma'rifiy faoliyati, boy adabiy-badiiy merosi asrlar davomida yuksak insonparvarlik, Vatanga sadoqat, adolat va ezgulik timsoli sifatida hamisha dunyo ahlining e'tiborini tortib kelmoqda.

Hazrat Mir Alisher Navoiy o'ta murakkab sharoitda milliy va umuminsoniy g'oyalarni baland ko'tarib maydonga chiqqani, o'zbek adabiy tiliga asos solib, uning o'lmas ruhi, qudrati va latofatini har tomonlama isbotlab bergani chinakam ma'naviy jasorat namunasi, desak, ayni haqiqat.

Bugun Alisher Navoiy asarlari jahondagi yuzlab tillarga tarjima qilinmoqda. Dunyo ahli uning merosi bilan qiziqmoqda, asarlarida tarannum etilgan oliyjanob g'oyalar va falsafiy mushohadalardan zavq olmoqda.

Aytish kerakki, mazkur xalqaro simpoziumning aynan Navoiy viloyatida o'tkazilishi ham bejiz emas. Daho shoir nomi bilan ataluvchi viloyatda Prezidentimiz tashabbusi bilan 2025-yil "Alisher Navoiy yili", deb nomlandi.

Davlatimiz rahbarining "Buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy ijodiy merosini yurtimiz va jahon miqyosida keng targ'ib qilish hamda Navoiy viloyatida "Alisher Navoiy yili"ni yuqori darajada o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida endilikda butun mamlakatimiz bo'ylab, xususan, ushbu viloyatda ulug' ajdodimiz merosini o'rganish hamda targ'ib qilishga qaratilgan ishlar yangi ko'lam kasb etadi.

Tadbirda hozirgi globallashuv davrida o'zlikni anglash va ma'naviy taraqqiyotga erishishda Alisher Navoiyning betakror merosi muhim ahamiyatga ega ekani alohida ta'kidlandi.

➡ 4

### Senatorlar hududlarda

## MUAMMOLAR YECHIMI VA AMALIY TASHABBUSLAR

*Xabar berganimizdek, Oliy Majlis Senati a'zolarining mahalliy Kengash deputatlari va aholi bilan uchrashuvlarida ko'plab muammolarga yechim topilmoqda.*

Parlament yuqori palatasining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi, Senatning Mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko'maklashuvchi komissiyasi raisi Anvar To'ychiyev hamda Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi a'zosi Pokiza Ahmedjanova xalq deputatlari Boyovut tumani Kengashi faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

Uchrashuvda mahalliy Kengashlar faoliyatini namunali yo'lga qo'yishni tashkiliy-huquqiy jihatdan tartibga solish, Kengash qarorlarini qonunchilik va yuridik texnika qoidalari asosida qabul qilish, qonunlar muhokamasi hamda targ'iboti bo'yicha faoliyat, qonunchilikka doir takliflarni tayyorlash hamda Kengash sessiyalarida axborotlarni eshitish va muhokama qilib borish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilishi to'g'risida Kengash a'zolariga zarur tavsiyalar berildi.

Xalq deputatlarining mahalliy byudjet, hududni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni shakllantirishdagi ishtiroki hamda mablag'larini maqsadli yo'naltirish, ijrosi bo'yicha samarali nazorat o'rnatish, nazorat-tahlil tadbirlarini amalga oshirish borasidagi faoliyatiga alohida urg'u berildi. Kengash va deputat so'rovini yuborish, hujjatlar bilan ishlash, jamoatchilik bilan aloqalar, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha o'zaro fikr-mulohazalar almashildi.

* * *

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi Sayyora Abdikarimova Xorazm viloyatiga xizmat safari davomida issiqxona xo'jaliklari va tadbirkorlik subyektlari faoliyati bilan tanishdi.

Senator dastlab Urganch tumanidagi "Fayz baraka Xorazm" MChJ issiqxonasida bo'ldi. Bu yerda 6 gektar maydonda 60 nafar ishchi mehnat qilmoqda, yil yakuniga qadar yana 40 ta ish o'rni yaratish rejalashtirilgan.

➡ 2

### Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

## IJRO SAMARADORLIGI VA DOLZARB MASALALAR MUHOKAMASI

*Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasida siyosiy partiyalar fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturining 2024-yilda bajarilishi yuzasidan Vazirlar Mahkamasi hisoboti, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning 2024-yildagi faoliyati to'g'risidagi ma'ruzasi hamda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan bir qator qonun loyihalari atroflicha ko'rib chiqildi.*

Jumladan, **Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi** yig'ilishida davlat dasturining 2024-yil yakunlari ijrosi yuzasidan hisoboti muhokama qilindi.

Dasturdagi ustuvor yo'nalishlar va maqsadlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash maqsadida zarur choralar ko'rilgani, 2024-yil yakunida yalpi ichki mahsulotning o'sishi o'tgan yildagiga nisbatan 6,5 foizni tashkil qilgani alohida qayd etildi.

Hisobot yilida, shuningdek, qishloq xo'jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish maqsadida hududlarda umumiy qiymati 329,8 mlrd. so'mlik quvvati 96,5 ming tonna bo'lgan 12 ta agrologistika markazlari ishga tushirildi va 500 dan ortiq ish o'rinlari yaratilgan. Qolaversa, hududlarda 50 ming gektarda intensiv usulda sabzavot mahsulotlari yetishtirilgan.

Shuningdek, yig'ilishda fraksiya a'zolari kun tartibidan o'rin olgan – kreditorlarning garov bilan ta'minlangan talablarini qanoatlantirish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasini ko'rib chiqishdi.

Munozaralar davomida fraksiya a'zosi Jasurbek Shodiyev qonun loyihasining mohiyatiga to'xtalib, uning qabul qilinishi kreditorlarning garovga qo'yilgan mol-mulkiga nisbatan huquqlari ustuvorligini ta'minlash, garov narsasini suddan tashqari tartibda realizatsiya etish tizimini takomillashtirish, majburiyatni garovdagi mol-mulk hisobidan undirish jarayonlarini soddalashtirishga xizmat qilishini ta'kidladi.

Bu bilan Fuqarolik, Soliq kodekslariga, "Garov to'g'risida"gi, "Ipoteka to'g'risida"gi, "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi hamda "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi qonunlarga kreditorlarning garov bilan ta'minlangan talablarini qondirishni takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.



**O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi** yig'ilishida davlat dasturining 2024-yilda bajarilishi yuzasidan Vazirlar Mahkamasi hisoboti muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda milliy iqtisodiyotning muhim drayveriga aylanayotgan turizm sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, hisobot davrida tadbirkorlarning 6,5 trln. so'm sarmoyalari evaziga 24 ming o'rinli mehmonxonalar ishga tushgan. Shuningdek, jami 3 mlrd. 489,5 mln. AQSH dollari miqdorida turizm xizmatlari eksporti amalga oshirilgan.

➡ 2

## HAYOTIY MAQSADLAR — XALQIMIZ FAROVONLIGI UCHUN

*Prezidentimizning 2025-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni hamda bu yilgi dasturda nazarda tutilgan maqsad va vazifalar barcha sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.*

### Aks sado

Xususan, "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, ekologik holatni yaxshilash, suv va boshqa tabiiy resurslardan unumli foydalanish standartlarini keng joriy qilish bilan "Inson qadri uchun" degan ulug'vor g'oya hayotga tatbiq etilayotganidan dalolat beradi.

Ma'lumki, davlatimiz rahbari shu yil yanvar oyida Birlashgan Arab Amirliklarida bo'lib o'tgan "Abu-Dabi barqaror rivojlanish haftaligi" sammitidagi nutqida "Yangi O'zbekistonning strategik maqsadi – ekologik barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishning resurslar tejamkorligiga asoslangan "yashil" rivojlanish modeliga o'tishdir", deya ta'kidlagan edi. Bundan ko'rinib turibdiki, "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan maqsadlar "yashil" rivojlanish modeliga o'tishdagi eng muhim tarixiy qadamlardir.

Shu o'rinda ushbu hujjatlarda belgilangan muhim jihatlarga to'xtalib o'tsak. Eng avvalo, Farmon va dasturda "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini keng joriy qilish, ekologik qulay va farovon yashash muhitini shakllantirish, aholi salomatligini yaxshilash, tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash, respublika energomuvozanatida qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada zamonaviy energotejamkor texnologiyalarni keng qo'llash orqali iqtisodiyotda "uglerod izi"ni kamaytirishga alohida e'tibor qaratilgan.

➡ 2

# MUAMMOLAR YECHIMI VA AMALIY TASHABBUSLAR

Senator Gurlan tumani xalq deputatlari Kengashi faoliyati bilan ham tanishdi. Mahalla faollari va tadbirkorlar bilan uchrashuvda issiqxona xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga oid yangi qaror hamda farmonlar yuzasidan tushuntirishlar berilib, fikrlar tinglandi.

“Gurlan Global Teks” MChJ faoliyati bilan tanishish chog‘ida tadbirkorlikni yanada kengaytirish borasida tavsiyalar berildi.

* * *

Oliy Majlis Senatining Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi raisi o‘rinbosari Oral Ataniyazova va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi qo‘mita raisi Sharapat O‘temisov Qonliko‘l tumanida saylovchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazdi.

Senator O. Ataniyazova xalq deputatlari Qonliko‘l tumani Kengashi deputatlari, sektorlar, muassasa, korxona rahbarlari, qishloq va mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari bilan uchrashuv o‘tkazdi.

“Jayhun” mahallasi fuqarolari bilan uchrashuvda hudud aholisining ichimlik suvi masalasidagi muammosi muhokama qilinib, uni hal qilish choralari belgilandi. Shuningdek, hududda ishsizlikni bartaraf etish, yo‘l, transport va qishloq xo‘jaligi sohasidagi masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

* * *

Oliy Majlis Senati a’zolari Zumrad Bekatova hamda Komila Karomova Qarshi shahridagi “Oydin” mahalla fuqarolar yig‘inida bo‘ldi.

Bu yerda “mahalla yettiligi” faoliyati o‘rganilib, fuqarolarning muammolari tinglandi. Masalalar yuzasidan tegishli tashkilotlarga zarur ko‘rsatmalar berildi.

Shundan so‘ng senatorlar Qarshi shahridagi “Osmon guli” tikuvchilik fabrikasida bo‘lib ishlab chiqarish jarayoni, mahsulot sifati va ishchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi. Fabrikada xotin-qizlarning mehnat sharoitlari va ular uchun ko‘rsatilayotgan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralari muhokama qilindi.

*Aholi bilan ochiq muloqotlarda bildirilayotgan taklif va muammolar yuzasidan tegishli choralar belgilab olinmoqda.*

**“Xalq so‘zi”.**

# HAYOTIY MAQSADLAR – XALQIMIZ FAROVONLIGI UCHUN

Har bir inson uchun munosib yashash sharoitlarini yaratish yo‘nalishi doirasida “Ekofaol fuqaro” hayot tarzini keng targ‘ib qilishga qaratilgan “Bir million yashil oila” umummilliy harakatini yo‘lga qo‘yish, tibbiyotning birlamchi bo‘g‘inida bosqichma-bosqich transformatsiyani amalga oshirish, oliy ta’limda grant o‘rinlari sonini ko‘paytirish hisobiga aniq va tabiiy fanlar, muhandislik-texnika, xizmatlar, tibbiyot kabi sohalarda davlat buyurtmasini 25 mingtaga yetkazish, 3,5 ming kambag‘al oila farzandlarini oliy ta’lim tashkilotlarida belgilangan tartibda grant asosida o‘qitish “Inson qadri hamma narsadan ustun” tamoyilining amaldagi isbotidir, desak, yanglishmaymiz.

Farmonda belgilangan sakkizta ustuvor yondashuv resurstejamkor iqtisodiy rivojlanish modeliga o‘tish orqali 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulotning yillik o‘sishini kamida 6 foiz, hajmini 200 mlrd. dollarga yetkazish, kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish maqsadlariga erishishga asos bo‘lishi, shubhasiz.

Yana bir muhim masala. Suv resurslarini tejash va atrof-muhit muhofazasi yo‘nalishi bo‘yicha 1 ming kilometr kanallarni beton qoplamaga o‘tkazib, suv tejovchi texnologiyalar qamrovini 1,6 mln. gektarga yetkazish hisobiga yiliga qo‘shimcha 2,5 mlrd. metr kub suvni tejashga erishish, 1,8 ming kilometr ichimlik va oqova suv tarmoqlarini, 77 ta ichimlik va oqova suv inshootlarini qurish hamda rekonstruksiya qilish masalalari nazarda tutilgani tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta’minlash imkoniyatini beradi.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi va “Mening bog‘im” loyihasi doirasida 200 mln. tup daraxt hamda butalar ekish, “Soyali sayr ko‘chalari” tarmog‘ini yaratish, Orol dengizi tubida 100 ming gektar “yashil maydon” barpo etish va Orolbo‘yi mintaqasidagi o‘rmonzorlarni 2,1 mln. gektarga, o‘rmon bilan qoplangan maydonlar hajmini 4,1 mln. gektarga yetkazish va muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni 14,5 foizgacha kengaytirish kabi vazifalarning belgilanishi mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, hududlarda yashillik darajasini oshirish, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirishga turtki bo‘ladi.

O‘zbekiston Ekologik partiyasining Saylovoldi dasturida nazarda tutilgan bir qator dasturiy maqsadlarning Farmon va davlat dasturining tegishli bandlaridan o‘rin olgani diqqatga sazovor. Xususan, 2025-yil 1-maydan boshlab Toshkent va Nukus shaharlari hamda viloyatlar markazlarida atrof-muhitga ta’siri kuchli bo‘lgan ayrim yo‘nalishlarda yangi loyihalarni amalga oshirishning taqiqlanishi, “Yevro-4” standartidan past ekologik toifadagi yonilg‘idan foydalanish hamda sotishni cheklash, plastik qadoqlar va plastik qadoqlarda mahsulot ishlab chiqaruvchilar hamda import qiluvchilarga kengaytirilgan majburiyatlarni joriy etish bo‘yicha qonun loyihasini ishlab chiqish belgilangani partiyamiz dasturiy maqsadlari ijrosini ta’minlashga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbarining mazkur Farmoni hamda davlat dasturida belgilangan ustuvor maqsad va vazifalarning o‘z vaqtida bajarilishi yurtimiz tinchligi va ravnaqini ta’minlab, xalqimiz farovonligini oshiradi, pirovardida O‘zbekistonning “yashil” rivojlanish modeliga o‘tishini yanada tezlashtiradi.

**Xayrullo G‘AFFOROV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasi raisi.**

# IJRO SAMARADORLIGI VA DOLZARB MASALALAR MUHOKAMASI

Maktabgacha ta’limni yangi bosqichga olib chiqish, qamrovni oshirish hamda qulay shart-sharoitlar yaratish yo‘nalishida 96 ta yangi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyati yo‘lga qo‘yilib, jami bog‘chalar soni 6 915 tani tashkil qilgan. Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni esa 31 140 taga yetkazildi. Natijada qamrov darajasi 76 foizga yetgan.

Shuningdek, mamlakatimizdagi 10 160 ta maktabga sport jihozlari, milliy musiqa cholg‘u asboblari yetkazib berilgan. 2024 -2025 o‘quv yilidan boshlab Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi olis va chekka hududlarda joylashgan 100 ta maktabning 10 ming 643 nafar o‘quvchisi uchun bepul maktab avtobusi qatnovi yo‘lga qo‘yilgan.

Fraksiya a’zolari partiya maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, ta’lim sohasida amalga oshirilgan ishlarga alohida e’tibor qaratdi. Jumladan, umumiy o‘rta ta’lim tizimida “Ta’lim uchun qulay muhit” dasturini amalga oshirish maqsadida respublikadagi mavjud 9 920 ta umumta’lim maktabi qayta xatlovdan o‘tkazilib, 6 099 ta umumta’lim maktabi markazlashgan ichimlik suvi bilan ta’minlangani deputatlar tomonidan alohida e’tirof etildi.



Deputatlar ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, pedagog va tarbiyachilar tayyorlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni jadallashtirish yuzasidan qator takliflar berib, amaliy ishlarga ko‘proq ahamiyat qaratish kerakligini bildirdi. Tegishli vazirlik va idora rahbarlariga davlat dasturi ijrosi bo‘yicha berilgan savollarga atroflicha javob olindi.

**O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi** yig‘ilishida Inson huquqlari bo‘yicha vakil (ombudsman)ning 2024-yildagi faoliyati to‘g‘risidagi ma’ruzasi ko‘rib chiqildi.

Unda qayd etilishicha, 2024-yilda Ombudsman nomiga O‘zbekiston Respublikasi, xorijiy davlatlar fuqarolari va ombudsmanlari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, jamoat tashkilotlari va boshqa yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlar soni 23 422 tani tashkil etdi.

Ombudsman tomonidan murojaatlarni o‘rganish natijasida inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi qonunbuzilish holatlari, ularga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan davlat organlari va idoralariga hamda mansabdor shaxslarga 182 ta (2022-yilda 134 ta, 2023-yilda 170 ta) taqdimnoma, talabnoma, ariza va da’vo arizalari hamda xulosa shaklidagi ta’sir choralari kiritilgan.

Munozaralar davomida fraksiya a’zolari tomonidan berilgan savollarga tegishli javoblar olinib, Ombudsmanning 2024-yildagi faoliyati to‘g‘risidagi ma’ruzasi ma’qullandi.

Deputatlar, shuningdek, davlat dasturining 2024-yilda bajarilishi yuzasidan Vazirlar Mahkamasi hisobotini ham ko‘rib chiqdilar.

Ma’lum bo‘lishicha, hisobot davrida aholi salomatligini ta’minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan. Xususan, eng ko‘p uchraydigan yurak-qon tomir, qandli diabet, o‘pkaning surunkali obstruktiv kasalliklari xavfini aniqlash maqsadida profilaktik ko‘riklarni o‘tkazish uchun 10 mln. 184 ming nafar 40 yoshdan oshgan aholi hamda 8 mln. 162 ming nafar bola ommaviy skrining tekshiruvidan o‘tkazilgan.

Shuningdek, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta’minlash maqsadida ularning 197,7 ming nafariga 3,3 trln. so‘m kredit ajratilgan va 548,8 mingining bandligi ta’minlangan.

Fraksiya a’zolari hisobot yilida Hukumat tomonidan davlat dasturining ijrosini samarali ta’minlash bo‘yicha choralar ko‘rilgani, ayniqsa, ijtimoiy sohani rivojlantirish masalalariga ustuvorlik berilganini, aholini malakali tibbiy va ta’lim xizmatlari bilan ta’minlash sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilganini ijobiy baholadi.



**O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi** a’zolari tomonidan davlat dasturining 2024-yil yakunlari ijrosi to‘g‘risidagi Hukumat hisoboti ko‘rib chiqildi.

Yig‘ilishda deputatlar partiyaning dasturiy maqsadlari hamda saylovoldi dasturidan kelib chiqib, ehtiyojmand qatlam vakillarining huquq va manfaatlarini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarga alohida e’tibor qaratdi.

Hisobotda keltirilishicha, “temir daftar”, “ayollar daftari”, “yoshlar daftari”ga kiritilgan ishsiz hamda zarur kasbiy malakaga ega bo‘lmagan fuqarolardan 221 ming nafardan ziyodi mehnat bozori ehtiyojidan kelib chiqib 90 ta kasb yo‘nalishi bo‘yicha o‘qitilgan.

Shuningdek, hududlar kesimida kambag‘al aholiga ko‘rsatilayotgan yordamni onlayn monitoring qilish va manzilli ishlash imkoniyatini beradigan “Individual dastur” moduli ishga tushirilgan. Natijada iqtisodiy qo‘llab-quvvatlashga muhtoj 729 mingta oilani kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha manzilli individual dastur ishlab chiqilib, turli ijtimoiy yordamlar ko‘rsatilgan.

Inson huquqlari bo‘yicha vakil (ombudsman)ning 2024-yildagi faoliyati to‘g‘risidagi ma’ruzasi ham deputatlarning diqqat markazida bo‘ldi.

Hisobot davrida Ombudsman tomonidan fuqarolar murojaatlarini ko‘rib chiqish, ularning huquqlarini himoya qilish, inson huquqlarini kafolatlovchi qonunchilik bazasini mustahkamlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirilganligi alohida qayd etilib, uning faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qator takliflar ilgari surildi.

**O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi** yig‘ilishida ham davlat dasturining 2024-yilda bajarilishi yuzasidan Vazirlar Mahkamasi hisoboti muhokama qilindi.

Yig‘ilishda hisobot davrida mamlakatimizda ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ko‘chat ekish tadbirlari tizimli va sifatli tashkil etilib, respublika bo‘yicha 225,9 mln. tup daraxt va buta ko‘chati ekilgani ta’kidlandi.

Shuningdek, o‘rmonlar maydonini kengaytirish maqsadida Orolbo‘yi mintaqasi hududlari – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy, Buxoro va Xorazm viloyatlarida 220 ming gektar maydonda “yashil qoplama”lar (himoya o‘rmonzorlari) barpo etildi. Cho‘llanish va qum ko‘chishi, suv va tuproq eroziyasining oldini olish hamda ekologik muhitni yaxshilash maqsadida 3 257,8 gektar maydonda himoya o‘rmonzorlari (ihota) barpo qilingan.

2024-yilda respublikada suvdan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirish borasida samarali ishlar amalga oshirilgan. “O‘zgidromet” tizimida avtomatlashtirilgan kuzatuv tarmoqlari ulushi 83 foizga yetkazildi.

Yig‘ilishda fraksiya a’zolari iqtisodiyot tarmoqlaridan havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini qisqartirish, qattiq maishiy chiqindi poligonlarini rekultivatsiya qilish, respublika hududida ekologik holatni barqarorlashtirish hamda “Yashil makon” umummilliy loyihasini kengaytirish, Orol dengizining qurigan tubida “yashil qoplamalar” (himoya o‘rmonzorlari) barpo etish, mintaqada yuzaga kelayotgan suv taqchilligini yumshatish maqsadida suv resurslarini boshqarishni tubdan isloh qilish va suv iqtisodi bo‘yicha vazifalar ijrosini samarali tashkil etish hamda bu yo‘nalishlarda nazoratni kuchaytirish borasida qator takliflar berishdi.

Munozaralar yakunida davlat dasturining 2024-yilda bajarilishi yuzasidan Vazirlar Mahkamasining hisoboti ma’qullandi.

*Yig‘ilishlarda fraksiyalar faoliyatiga oid boshqa masalalar ham ko‘rib chiqildi va tegishli qarorlar qabul qilindi.*

**“Xalq so‘zi”.**

# TADBIRKORLAR MANFAATLARI HIMOYASINI TA’MINLASH BORASIDA YANA BIR QADAM

*Mamlakatimiz soliq tizimi davlatning samarali soliq siyosatini yuritishda asosiy mezon hisoblanadi. Soliq munosabatlarini tartibga solish jarayonida soliq mexanizmi namoyon bo‘ladi. Zero,soliqlar har qanday Davlat byudjeti shakllanishining asosiy manbaidir.*

## Qonun ijodkorligi

Shu ma’noda, yurtimizda tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning erkin va samarali faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, soliq sohasidagi munosabatlarni takomillashtirish va biznes muhitini yaratishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yaqinda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida deputatlar tomonidan soliq va tadbirkorlik sohasidagi huquqiy munosabatlarni takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ko‘rib chiqildi. Undan soliq sohasidagi huquqbuzarliklar uchun, shu jumladan, soliqlar yoki yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun chora ko‘rishga qaratilgan huquqiy me’yorlar o‘rin olmoqda. Shuningdek, unga sudga qadar va sud muhokamasi davomida yetkazilgan zarar to‘liq qoplangan taqdirda javobgarlikdan ozod qilish, vakolatli organlarning tergovga qadar tekshiruv harakatlarini amalga oshirish hamda ularning ma’muriy huquqbuzarliklarni ko‘rib chiqish bilan bog‘liq vakolatlarini aniqlashtirishni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish nazarda tutilmoqda.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra birgina o‘tgan davr mobaynida 24,1 trln. so‘mlik noqonuniy tovar-pul aylanmasini amalga oshirgan 2 672 ta “bir kunlik firma” faoliyatiga barham berilgan. Bundan tashqari, amaldagi qonunchilikka ko‘ra soliqlarni to‘laganlik uchun javobgarlikdan ozod etishga faqat tergovga qadar tekshiruvdagina yo‘l qo‘yilishi belgilanganligi sababli ham, 2023-yilda tergov davomida 211 nafar shaxs 155 mlrd. so‘mlik soliqlarni to‘liq to‘lagan bo‘lishiga qaramasdan javobgarlikka tortilgan. So‘nggi ikki yilda 30 ta jinoyat ishi bo‘yicha yashirilgan 23,6 mlrd. so‘mlik soliqlar tergov organining depozit hisob raqamiga o‘tkazilganiga qaramasdan asossiz penya hisoblanishi oqibatida tadbirkorlardan ortiqcha mablag‘lar undirilgan.

Shu va shunga o‘xshash boshqa holatlar soliq sohasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi va ularning oldini olish, jinoyat ishlari doirasida tadbirkorlik subyektlarining himoyasini kuchaytirishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarurati mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Shu bois qonun loyihasida soliq sohasidagi huquqbuzarlik uchun qo‘shimcha hisoblangan mablag‘larga tergov organi depozit hisob raqamidan byudjetga o‘tkazilguniga qadar penya hisoblanmasligi, mulkdorning yer uchastkasi jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilganida mulkning bozor qiymatida to‘lab berilgan kompensatsiya miqdorining soliq daromadi tarkibiga kirmasligi, tadbirkorlik subyektlariga nisbatan qo‘zg‘atilgan jinoyat ishlari bo‘yicha Biznes-ombudsman yoki Savdo-sanoat palatasining jamoatchi himoyachi sifatidagi ishtirokini nazarda tutuvchi yangi normalarning nazarda tutilayotganligi bevosita tadbirkorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish yo‘lidagi muhim qadamlardan, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bundan tashqari, loyihada qasddan yashirilgan yoki kamaytirib ko‘rsatilgan foyda (daromad) bo‘yicha soliqlar va yig‘imlar to‘liq to‘langan taqdirda ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo‘llanilmasligi nazarda tutilmoqda. Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs tergovga qadar tekshiruv, tergov va birinchi instansiya sud muhokamasi davomida soliqlar va yig‘imlar, jumladan, penyalar va boshqa moliyaviy sanksiyalar tarzida davlatga yetkazilgan zararning o‘rnini to‘liq qoplasa, javobgarlikdan ozod qilinishi belgilanayotganligi ham bu borada joriy etilayotgan islohotlarning xalqchilligini namoyon qiladi.

Ushbu qonun loyihasi deputatlar tomonidan keng muhokama etildi va ikkinchi o‘qishga tayyorlash jarayonida e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan bir qator takliflar hisobga olindi. Jumladan, loyihaning muqaddima qismini fuqarolar uchun tushunarli qilib yozish lozimligi qayd etildi. Bu, o‘z navbatida, huquqni qo‘llash amaliyotida tushunmovchiliklar kelib chiqishi holatlarining oldini oladi. Shuningdek, loyiha bilan Jinoyat kodeksining 179-moddasi, ya’ni soxta tadbirkorlik masalasiga urg‘u berilib, muayyan manfaat maqsadida tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish uchun jarima miqdori oshirilayotganiga e’tibor qaratildi.

Bu bejiz emas. Chunki birgina 2024-yilda 516 ta “bir kunlik firma” aniqlanib, ular tomonidan katta miqdordagi mablag‘lar o‘zlashtirilganligi ham bu borada jiddiy choralar qabul qilish zaruratini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mazkur kodeksning sakkizinchi bo‘limiga kiritilayotgan “soliqlar yoki yig‘imlarning ancha miqdori”, “soliqlar yoki yig‘imlarning juda ko‘p miqdori”, “soliqlar yoki yig‘imlarning ko‘p miqdori” kabi jumlalarning muhim ahamiyatga egaligi qayd etilib, ularni ham qonun loyihasi muqaddimasiga qo‘shish kerakligi ta’kidlandi.

Aytish mumkinki, mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi soliq sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish, soliq tushumlarining barqarorligini ta’minlash, xususiy tadbirkorlik rivoji uchun teng raqobat sharoitini yaratish, ularning qonuniy manfaatlarini ishonchli himoyalash kafolatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Firdavs QURBONOV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

O‘zbekiston – Malayziya:

# INNOVATSION TARAQQIYOT DAVRI

*O‘zbekistonning rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan joy olishi yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsadlardan biridir. Mamlakatimiz o‘tgan davrda turli qiyinchiliklarni yengib o‘tib, rivojlanish yo‘lidan dadil bormoqda.*

## Fikr

Vaholanki, bir paytlar ayrim ekspert doiralarida O‘zbekiston taraqqiyot yo‘lining muvaffaqiyatiga ishonmaganlar ham bo‘lgan edi. Bugun mamlakatimiz xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a’zosi sifatida ta’lim, sog‘liqni saqlash, tadbirkorlik, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda xavfsizlikni ta’minlash sohasida ulkan marralarni egallamoqda. Bu yutuqlar jahonning yetakchi reyting agentliklari tomonidan e’tirof etilmoqda. O‘zbekistonning jahon hamjamiyati bilan faol hamkorligi davlatimiz taraqqiyotining muhim omillaridan biridir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning joriy yil 4-5-fevral kunlari Malayziyaga amalga oshirgan rasmiy tashrifi ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarning yangi bosqichi – innovatsion rivojlanish davrini boshlab berdi. Bu tashrif siyosiy, iqtisodiy va texnologik hamkorlikning yangi istiqbollarini kengaytirdi. Davlatimiz rahbari va Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohim o‘rtasida bo‘lib o‘tgan muzokaralar va imzolangan shartnomalar ushbu fikrni tasdiqlaydi.

Tashrifning asosiy natijalari va ularning ahamiyati keng qamrovli hisoblanadi. O‘zbekiston va Malayziya o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarining yangi bosqichga ko‘tarilishini anglatuvchi muhim kelishuvga erishildi. 2025-2026-yillar ikki davlatning innovatsion hamkorligini rivojlantirish davri deb e’lon qilindi. Bu ikki mamlakat rahbarlari tomonidan qabul qilingan qator muhim qaror va kelishuvlar natijasidir. Ushbu sheriklikning asosiy yo‘nalishlari aniq belgilanib, ular ko‘plab sohalarda keng qamrovli hamkorlikni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekistonning boy neft-gaz resurslari va Malayziyaning kimyo sanoatidagi katta tajribasi ushbu sohada keng imkoniyatlar yaratadi. Ya’ni qo‘shma korxonalarni tashkil etish, texnologiya va investitsiyalar almashinuvi orqali yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish mumkin. Malayziyaning elektron sanoatdagi kuchli tajribasi O‘zbekistonda ushbu sohani rivojlantirishga katta yordam beradi. Ilmiy tadqiqot ishlari, texnologiyalar transferi va qo‘shma loyihalar bilan O‘zbekiston iqtisodiyotining innovatsion salohiyatini, zamonaviy texnologiyalar, sensorlar va sun’iy yo‘ldosh navigatsiya tizimlarini qo‘llash orqali esa qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirish mumkin.

O‘zbekistonning boy tarixiy va madaniy merosi hamda Malayziyaning turizm sohasidagi tajribasi tufayli xalqaro ziyorat turizmi yanada taraqqiy etadi.

Yana bir ahamiyatli jihati, Toshkent viloyatida Malayziyaning yetakchi kompaniyalaridan biri boshqaruviga maxsus iqtisodiy zona tashkil etilayotgani investitsiyalarni jalb qilish, ish o‘rinlari ochish va innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi.

O‘zbekiston va Malayziya o‘rtasidagi 2025-2026-yillarga mo‘ljallangan innovatsion hamkorlik rejasi ikki mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishga, yangi texnologiyalarni joriy etishga va o‘zaro manfaatli sheriklikni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Istiqbolli aloqalarning natijalari O‘zbekistonning global iqtisodiy maydondagi o‘rnini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

**Gulchehra TOJIBOYEVA,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi a’zosi.**




# TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA MUHIM SHERIK

*O'zbekiston va Malayziya munosabatlarini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarib, strategik sheriklik yo'lidan bormoqda. Buning isboti o'laroq Kuala-Lumpur shahrida bo'lib o'tgan samarali muzokaralar yakunida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev va Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohim Strategik sheriklik yo'lida ikki tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish to'g'risida qo'shma bayonot imzoladi.*

## Munosabat

Ta'kidlash joizki, muzokaralar davomida ikki davlat rahbarlari neft-kimyo va kimyo sanoati, elektronika, qishloq xo'jaligi, "yashil" energiya va ziyorat turizmi kabi ustuvor yo'nalishlarda ish olib borishga kelishib oldilar. Belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish uchun maxsus "Yo'l xaritasi" ishlab chiqiladigan bo'ldi.

So'nggi yillarda o'z mintaqasining yetakchi mamlakatlari bo'lgan O'zbekiston va Malayziya bir-biriga talpinmoqda. Oqilona iqtisodiy va investitsiyaviy siyosat ortidan Malayziya rosmana zamonaviy davlatga, taraqqiyot etaloniga aylandi, shunchalikki, hatto bironta nufuzli xalqaro reytinglarda uning nomini uchratmasak hayron qolamiz.

Kuala-Lumpurdagi muloqotlarning muhim jihatlaridan biri shundaki, Malayziyaning "Petronas" neft va gaz kompaniyasi O'zbekiston bozoriga qaytmoqda. U O'zbekistonda gazni qayta ishlash bo'yicha ikkita yirik loyihani amalga oshirishda ishtirok etadi. Geologiya-qidiruv ishlarini olib borish va istiqbolli uglevodorod konlarini o'zlashtirish, karbonat angidrid gazini ushlab qolish hamda saqlash bo'yicha ilg'or texnologiyalarni joriy etish, "Petronas" universiteti negizida yuqori malakali kadrlar tayyorlashda ushbu kompaniya O'zbekistonning yirik sheriklaridan biriga aylanishi mumkin.

Eng muhimi, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalaridagi o'zaro manfaatli hamkorlik ham istiqbolli loyihalar asosida ilgari surildi. Zamonaviy klinikalar qurish, Malayziyaning ilg'or tajribasi asosida innovatsion farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish shular jumlasidan.

Tashrif natijalari haqida so'z ketganda, bevosita o'zimiz mehnat qilayotgan ta'lim sohasidagi sheriklik bo'yicha gapirsak, foydadan xoli bo'lmaydi. Muzokaralar yakunida oliy ta'lim sohasida hamkorlik to'g'risida bitim imzolangani diqqatga sazovor.

Prezidentimiz tashrifi arafasida yetakchi oliy ta'lim muassasalari rektorlari forumi o'tkazilgani ham xayrli ish bo'ldi. "Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda oliy ta'lim sohasidagi imkoniyatlar va tashabbuslar" mavzuida birinchi O'zbekiston – Malayziya ta'lim forumida "yashil" iqtisodiyot va turizm, shuningdek, "Sanoat inqilobi 5.0, sun'iy intellekt va metatexnologiyalar" mavzulariga bag'ishlangan sessiyalarda ilmiy va texnologik masalalar ustuvor bo'ldi.

Forumda ta'lim va ilm-fan sohasida qo'shma loyihalarni amalga oshirish




bo'yicha kelishuvlarga erishildi hamda ikki mamlakat oliy ta'lim muassasalari o'rtasida 50 dan ortiq shartnoma va memorandumlar imzolandi. Forum doirasida Malayziyadagi qator oliy o'quv yurtlarida bo'lib, ularning faoliyati, o'qitish tizimlari bilan yaqindan tanishdik.

Jumladan, Namangan davlat universiteti vakillari ham Malayziyadagi bir qator OTMlar bilan samarali ta'lim dasturlarini amalga oshirish yuzasidan muzokaralar olib bordi. Ayniqsa, Janubi-Sharqiy Osiyoda o'z nufuziga ega bo'lgan "Malaya" universitetiga tashrif samarali bo'ldi. Tashrif davomida har ikki OTM o'rtasida istiqbolli shartnomalar imzolanib, kelgusida ushbu ahdlashuvlar doirasida "Malaya" universitetining fan ("Science") fakulteti hamda NamDUning fizika-matematika fakulteti hamkorligida qo'shma o'quv-ilmiy laboratoriyalar filialini ochish, professor-o'qituvchi va talabalarning o'zaro akademik almashinuvini amalga oshirish ko'zda tutilmoqda. Hamkorlik natijasi o'laroq universitetda qo'shma ilmiy loyihalar shakllantiriladi, har ikki davlat ta'lim tizimidagi o'quv jarayonlariga oid tajribalar almashinadi.

Tashrif davomida Malayziya Xalqaro islom universiteti bilan ham bir qator yo'nalishlarda sheriklikda faoliyat olib borish bo'yicha kelishuvlarga erishdik. Jumladan, tibbiyot sohasining stomatologiya, davolash ishi va pediatriya yo'nalishlarida qo'shma ta'lim dasturlarini joriy etish, malakali mutaxassislar tayyorlashga kelishildi.

Utara universiteti bilan esa universitetimizda Tadbirkorlikni rivojlantirish markazini tashkil etish, iqtisodiyot va biznes sohasidagi o'quv va ilmiy hamkorliklar yo'lga qo'yiladi. Sulton Idris ta'lim universiteti bilan ham psixologiya, amaliy psixologiya, inklyuziv ta'lim hamda ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarish kabi yo'nalishlarda qo'shma ta'lim dasturlari yo'lga qo'yiladi va shu asosda kelgusi o'quv yilidan qo'shma ta'lim dasturlariga talabalar qabuli boshlanadi.

Shuningdek, Malayziyaning Perlis universiteti bilan ham axborot texnologiyalari va iqtisodiyot sohalarida hamkorlikda xalqaro va milliy grantlar loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish, professor-o'qituvchilar va talabalar uchun "Yozgi maktablar" tashkil etish kabi istiqbolli loyihalar amalga oshiriladi.

Malayziya Texnologiya universitetining sun'iy intellekt fakulteti bilan IT sohasida hamkorlik qilinadi. Bular "Bir million dasturchi" loyihasi uchun talabalarni dasturlashga o'rgatish va xalqaro grant tanlovlarida ishtirok etish hamda raqamlashtirish yo'nalishida amalga oshirilayotgan loyihalar bo'yicha tajriba almashinuvini yo'lga qo'yishdan iborat.

O'zbekiston va Malayziya o'rtasidagi hamkorlik doirasida oliy muhandislik maktablarini tashkil etishga istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida qaralayotgani e'tiborga molik. Oliy muhandislik maktablarining asosiy vazifalari zamonaviy talablarga mos ravishda belgilangan. Ular, avvalo, talabalarga tanlangan yo'nalish bo'yicha chuqur va zamonaviy bilim berish, ilmiy tadqiqot, tahliliy, ijodiy hamda muloqot qobiliyatini rivojlantirishni o'z ichiga olgan. Bu maqsadda ta'lim jarayoni "4+1" shaklida tashkil etilib, bakalavriat, magistratura va doktorantura bosqichlarini o'z ichiga olgan kompleks tayyorgarlik dasturlari joriy etiladi. Bundan tashqari, muhandis-texnik kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash dasturlari yo'lga qo'yiladi. Hamkor korxonalar ehtiyojini hisobga olgan holda, yuqori texnologiyalar va ko'p tarmoqli ishlab chiqarishni o'zlashtirishga qodir, jamoaviy ishlay oladigan muhandis-tadqiqotchi malakasiga ega kadrlar tayyorlash ustuvor vazifa etib belgilanadi. Ta'lim jarayoniga yetakchi mahalliy va xorijiy professor-o'qituvchilar jalb qilinadi.

O'qitishning zamonaviy usullari, jumladan, loyihaviy ta'lim, muammoli o'qitish texnologiyalari va amaliy tadqiqotlardan foydalanish rejalashtirilgan. Sanoat muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini joriy etish va innovatsion loyihalar ustida ishlash maqsad qilib olinadi. Munosabatlarda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash katta o'rin tutadi. Malayziya bu borada ulkan tajribaga ega. Shu nuqtayi nazardan, "aqlli" qishloq xo'jaligi texnologiyalarini joriy etish, organik mahsulotlar ishlab chiqarish va "halol" standartlarini qo'llash bo'yicha qo'shma loyihalarni amalga oshirishdan ikki tomon ham manfaatdor.

Umuman, Kuala-Lumpurdagi O'zbekiston – Malayziya sammitida imzolangan 5 mlrd. dollarlik savdo-iqtisodiy bitimlar va madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlik bo'yicha kelishuvlar ikki tomonlama munosabatlarni strategik sheriklik darajasiga olib chiqish yo'lida muhim qadam bo'ldi.

**Sobitxon TURG'UNOV,**
**Namangan davlat universiteti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor.**

---

## Ogohlikka chorlov

*Terrorizm va ekstremizm global muammoga aylangan davrda yashayapmiz. Muammoning dolzarbligi shundaki, terroristik va ekstremistik tashkilotlar yoshlarni o'z faoliyatida ishtirok etishga jalb qilmoqda. Ayniqsa, voyaga yetmaganlarning radikal diniy g'oyalar domiga tushib qolayotgani o'ta tashvishlidir.*

# GLOBAL TARMOQNING «QARMOG'I»DAN EHTIYOT BO'LING

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2024-yil sentabr oyida bo'lib o'tgan Shanxay hamkorlik tashkiloti Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Aksilterror markazining terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashishda hamkorlikni mustahkamlashga bag'ishlangan qo'shma konferensiyasi ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida ta'kidlab o'tganidek, *"...afsuski, geosiyosiy keskinlik va nizolarning kuchayishi, yetakchi davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch taqchilligi, global xavfsizlik institutlari rolining pasayishi terrorizm va ekstremizm tahdidlariga qarshi kurashishda ochiq hamda samarali xalqaro hamkorlikning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda".*

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, *"...shu bilan birga, kibermakonda xavf-xatar va tahdidlar kuchayib bormoqda. Bunda noqonuniy faoliyat, yollash va radikal g'oyalarni targ'ib etish bo'yicha faol ishlar milliy chegaralar va qonunchilik normalarini tan olmaydigan internet tarmoqlari hamda kanallari vositasida tobora ko'p amalga oshirilmoqda. Buning oqibatida bugungi kunda aholining nisbatan zaif qatlamlari vakillari, jumladan, bizning yoshlarimiz va mehnat migrantlari "onlayn manqurtlashtirish" qurboniga aylanmoqda, turli noqonuniy guruhlarga jalb etilmoqda va jinoyat sodir etmoqda".*

Shu bois qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish hamda SHHT Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi va MDH Aksilterror markazi faoliyati doirasida bunday xavf-xatar hamda tahdidlarni bartaraf etish va ularga tezkorlik bilan javob qaytarish bo'yicha xalqaro hamkorlik samaradorligini oshirishga qaratilgan qo'shma amaliy chora-tadbirlarni o'tkazish eng muhim vazifalar hisoblanadi.

Deyarli har kuni dunyoning u yoki bu mamlakatida qurolli hujumlar uyushtirilgani haqida xabarlar tarqaladi. Ularning hammasi agressiv harakatlarga moyil bo'lgan o'smirlar tomonidan sodir etilmoqda. Bundan xulosa qilish mumkinki, ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarga noto'g'ri qarashda bo'lgan o'smirlar manipulyatorlarning o'ljasiga aylanib qolmoqda. Bilamiz, yoshlar shuhratga o'ch bo'ladi. Yoshlarning mana shu qiziqqonligi ko'pincha internetdagi ijtimoiy tarmoqlar va forumlar orqali amalga oshiriladigan taqiqlangan tashkilotlarga og'ish uchun asos bo'ladi. Shu bois ham ta'lim dargohlarida terrorizm va ekstremizmning oldini olish g'oyat dolzarb masaladir.

Ekstremistlar safiga yoshlar jalb qilinishining oldini olish maqsadida bolalar va o'smirlar o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish zarur. Mutaxassislarning fikricha, ota-ona e'tiboridan mahrum bo'lgan va o'zlariga nisbatan jamiyatning befarqligidan "g'azablangan" o'smirlar jinoyatchilar, jumladan, terrorchilar va ekstremistlar safiga qo'shiladi. Yoshlarning "o'tish davri" 14 dan 22 yoshgacha bo'lib, bu pallada o'smirlarda adolat tuyg'usi kuchayadi. Ular hayotning ma'nosini izlay boshlaydilar, o'zlarining "Men"larini topish istagida bo'ladi. Ular ruhan yaqin odamlar doirasini shakllantirishga harakat qiladi. Bu davrda o'spirin beqaror psixikaga ega bo'lgani tufayli har qanday taklif va manipulyatsiyaga osonlikcha tushib qoladi. Ekstremistlar mana shundan foydalanib yoshlarni o'z safiga jalb etadi.

Bugungi kunda yoshlar mavjud qonunlarni bilmasliklari, jamiyat qoidalariga amal qilmasligi oqibatida noqonuniy xarakterdagi norasmiy uyushmalarga a'zo bo'lib qolmoqda. Ekstremistik tashkilotlarning xavf-xatarlari to'g'risida yoshlar xabardorligini kuchaytirish, ekstremizm va terrorizmning oldini olish uchun ta'lim jarayonida bir qator ishlarni amalga oshirish zarur. Ta'lim dargohlariga huquqni muhofaza etish organlari xodimlari taklif qilinib, ota-onalar va bolalarning ekstremistik huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralarini tushuntiradigan tadbirlar o'tkazib turish maqsadga muvofiq. O'smirlarga bag'rikenglik, toqatlilik hislarini singdirish kerak. Shu tariqa bolalar millati, dini, irqi, jinsidan qat'i nazar, har bir insonning qadr-qimmatini hurmat qilishga o'rgatiladi.

Ekstremizm va terrorizmga qarshi muvaffaqiyatli kurashish uchun nafaqat farzandlar, balki ota-onalar ham maxfiy illatlarning jinoiy mohiyatini bilishi va tushunishi kerak.

Ekstremistik faoliyat uchun fuqarolar har bir davlat qonunlariga ko'ra jinoiy, ma'muriy javobgarlikka tortiladi. Terror harakatlari, asosan, bilimi past, tarix va madaniyatga noto'g'ri qarash bilan ajralib turadigan yoshlar tomonidan sodir etilayotganini ko'rib turibmiz. Ekstremist va terror tashkilotlari o'z safiga o'smirlarni internet orqali jalb qilayotgani va yollayotgani sir emas. Buning sababi oddiy: auditoriyaga oson kiriladi, anonim aloqa oson ta'minlanadi, ma'lumot dunyo bo'ylab tarqaladi, axborot yuqori tezlikda uzatiladi, internetdan foydalanish arzon va qulay, multimedia imkoniyatlari cheksiz.

Odatda yollovchilar, ta'bir joiz bo'lsa, ilon yog'ini yalagan odamlar bo'lib, ular buning uchun maxsus o'qitilgan. Yoshlarni jalb qilish uchun mo'ljallangan terroristik tashkilotlar malakali mutaxassislar, malakali psixologlar tarmog'iga ega. Ular potensial nomzod bilan aloqa paytida (avvaliga virtual, so'ng yuzma-yuz) uning zaif tomonlarini o'rganadi. Demak, global tarmoqning yaxshi tomonlari bilan bir qatorda salbiy tomonlari ham borligini unutmaslik darkor. Shu sababli, yoshlar imkon qadar internetda ekstremistlarning ta'sir doirasiga tushib qolmaslikka harakat qilishi kerak bo'ladi. Buning uchun shubhali guruhlarga qo'shilish kerak emas. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi guruhlar va forumlarda ishonuvchan bo'lish tavsiya etilmaydi. Yangi do'st tanlashda ehtiyot va sergak bo'lish kerak. Har qanday va'dalarga ishonib ketaverish ham yaxshilikdan dalolat emas. Har bir insonning bu dunyoda ezgu maqsadi aniq bo'lishi, unga erishish yo'llari ustida izlanishi lozim. Ana o'shandagina, har qanday yot g'oyalar uni maqsadidan chalg'ita olmaydi, yo'ldan adashtirmaydi.

Insoniyat uchun jiddiy global tahdid bo'lmish elektron terrorizm yadroviy, kimyoviy va bakteriologik qurollar bilan taqqoslanishi kerak bo'lgan muammo hisoblanadi. Unga va uning yangi shakllariga qarshi kurash har bir davlat xavfsizligini ta'minlashning asosiy tarkibiy qismidir.

O'zbekistonning terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha milliy strategiyasi keng qamrovli, inklyuziv va tizimli yondashuvga asoslangan bo'lib, profilaktik va preventiv choralarni qo'llash hamda vaqtida amaliy javob qaytarishni o'zida mujassam etadi. Jamiyatda hamjihatlik muhitini mustahkamlash va ochiq muloqotni rivojlantirish, ta'lim-tarbiya sohasini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ish o'rinlarini yaratish va aholining ishonchli ijtimoiy himoyasini ta'minlash bu boradagi ustuvor yo'nalishlar hisoblanadi.

Yaxshi bilamizki, farzandlarimiz – kelajagimiz. Nazorat, e'tibor ozgina susaysa, murg'ak qalblar o'zgalar ta'siriga tushib qolishi mumkin. Shunday ekan, har bir ota-ona farzandi uchun vaqt ajratishni, ular bilan qiziqishlari borasida suhbatlashib turishni aslo kanda qilmasligi shart. Zero, yoshlar ongu qalbini asrash – kelajakni asrash demakdir.

**Sharofiddin TO'LAGANOV**
**("Xalq so'zi").**

---

## Qulaylik

# Yo'llar ravon bo'lsa...

*Bog'ot tumanida bu yil 90 kilometr uzunlikdagi yo'llarga asfalt va qum-shag'al aralashmasi yotqizish rejalashtirilgan.*



Ichki yo'llarni ta'mirlash ishlari boshlanishi munosabati bilan soha mutaxassislari, "mahalla yettiligi" vakillari ishtirokida tashkil etilgan ko'rgazmali seminarda shu haqda so'z bordi.

"Nuroniy" jamg'armasi Bog'ot tumani bo'limi raisi X. Omonovning aytishicha, aholi murojaatlaridan kelib chiqib, birinchi navbatda, eng ta'mirtalab yo'llar tanlab olindi. Bu ishlar yakuniga yetgach tumandagi qator mahallalar aholisi, piyodalar va avtotransport vositalarining erkin harakatlanishi uchun qulay sharoit yaratiladi.

O'tgan yili Xorazm viloyatida 1175 kilometrlik avtomobil yo'llarida 515 mlrd. so'mlik ta'mirlash ishlari bajarilgan. "Mening yo'lim", "Tashabbusli byudjet" loyihalari, "Obod xonadon – obod ko'cha – obod mahalla" mezonlari asosida ko'plab mahallalardagi yo'llar asfalt qilingan.

**Odilbek ODAMBOYEV**
**("Xalq so'zi").**

---

# Ekologik loyihalar uchun yangi istiqbollar

*Ozarbayjon Milliy Mejlisi deputati, Madaniyat qo'mitasi raisining o'rinbosari Gyunay Efendiyeva "Dunyo" AA uchun intervyusida O'zbekiston, Ozarbayjon va Qozog'istonning "yashil" energiya sohasidagi mintaqaviy hamkorligi haqidagi fikrlarini bildirdi.*

## Biz va jahon

– Milliy Mejlis bahorgi sessiyasining birinchi yalpi majlisida "Ozarbayjon Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida "yashil" energiyani rivojlantirish va uzatish sohasida strategik sheriklik to'g'risidagi bitim" ratifikatsiya qilindi. Ushbu bitim Ozarbayjon, Qozog'iston va O'zbekiston Prezidentlari tomonidan o'tgan yilning noyabr oyida Bokuda bo'lib o'tgan BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha hadli konvensiyasi (COR29) ishtirokchilari konferensiyasining 29-sessiyasi doirasida imzolangan edi.

"COR29" global munozaralar va hamkorlik yo'lida muhim platforma bo'lishi bilan birga turkiy mamlakatlar uchun yangi strategik ittifoq va sheriklikka kirishish imkoniyatlarini kengaytirdi. Bir qator yirik davlatlar bilan solishtirganda Ozarbayjon, Qozog'iston va O'zbekiston atrof-muhit ifloslanishining umumiy darajasiga kamroq ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, davlatlarimiz ekologik muammolar va muhim ekologik inqirozlarga, ayniqsa, sezgir. Bu haqiqatan ham tahsinga sazovor.

Ma'lumki, Ozarbayjon, Qozog'iston va O'zbekiston qayta tiklanadigan energiya manbalari sohasida salmoqli salohiyatga ega va global energiya almashinuviga hissa qo'shishga qodir. Ushbu kelishuvning amalga oshirilishi natijasida shamol va quyosh energiyasi Yevropaga yangi "yashil" energiya koridori orqali



uzatiladi. Demak, mazkur loyiha turli sohalarda ishonchli hamkor sifatida harakat qilayotgan, global muammolarni hal etish yo'lida birgalikda odimlayotgan turkiy davlatlarning hamfikr ekanligining ifodasidir.

Alohida ta'kidlash joizki, ushbu kelishuv doirasida mamlakatlarimiz Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz, shuningdek, Yevropa va Osiyo o'rtasidagi hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar ochishda muhim rol o'ynaydi. Bu, o'z navbatida, O'rta yo'lakning bir qismi sifatida "yashil ko'prik"ning rivojlanishini tezlashtiradi.

Shunday qilib, Ozarbayjon, Qozog'iston va O'zbekistonning "yashil" energiya sohasidagi mintaqaviy hamkorligi kelajakdagi global ekologik loyihalar uchun yangi istiqbollarni yaratadi. Ishonamanki, mazkur kelishuv doirasidagi hamkorlik uch mamlakat o'rtasida tajriba almashish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishni kuchaytiradi. Shuningdek, mamlakatlarimizning energetik xavfsizligini yanada mustahkamlash uchun sharoit yaratadi. Bundan tashqari, mazkur hujjat yangi ish o'rinlari ochish, texnologik va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, aholi turmush darajasini yuksaltirish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi dolzarb global muammolar bo'yicha hamkorlik mushtarak tarix, madaniy-ma'naviy qadriyatlar, til va dinga asoslangan turkiy dunyo birligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

**"Dunyo" AA.**
Boku

РЕКЛАМА

## Diqqat, auksion o'tkaziladi

Eron Islom Respublikasining O'zbekiston Respublikasidagi elchixonasi Toshkent shahri, Yakkasaroy tumanidagi Ivlev ko'chasi, 6-uy manzilida joylashgan, yer uchastkasining umumiy maydoni 966 kvadrat metr va bino maydoni 252 kvadrat metr bo'lgan Eron Islom Respublikasi hukumatiga tegishli turarjoy uchastkasidan iborat obyektni auksionda ishtirok etish anketasida bayon qilingan 21 banddan iborat shartlar, qoidalar hamda mezonlar asosida auksion orqali sotuvga qo'yadi.

Auksionda ishtirok etishga talabgorlar **2025-yil 26-yanvar – 16-fevral kunlari soat 10:00 dan 16:00 gacha** elchixonaga murojaat qilib, auksionda qatnashish anketasi va auksionga oid maxsus konvertni hamda auksionga qo'yilgan obyektning boshlang'ich narxi to'g'risidagi ma'lumotni olishlari mumkin.

Auksionda ishtirok etish uchun pasport nusxasi hamda auksionda qatnashish anketasining to'ldirilgan shaklini taqdim qilish lozim.

Auksion konvertlari **2025-yil 17-fevral kuni soat 17:00 da** elchixona binosida auksion ishtirokchilari huzurida ochiladi.

Ushbu auksionda qatnashish ishtirokchi uchun hech qanday huquq bermaydi. Sotuvchi auksionning har qanday bosqichida uning natijalarini qabul qilish yoki rad etish huquqiga ega.

**Batafsil ma'lumot olish uchun elchixonaning quyidagi telefon raqamlari bilan bog'lanish mumkin:** 78-150-60-50, 78-150-60-65.

---

**10 – 15-fevral kunlari yurtimizda "Ilmli ayol – jamiyat ko'zgusi" haftaligi bo'lib o'tadi.**

# Alisher Navoiy va Sharq Renessansi






1 Simpozium doirasidagi tadbirlarning asosiy qismi Navoiy davlat universitetida bo‘lib o‘tdi.

Dastlab xalqaro simpozium doirasida universitet galereyasida Alisher Navoiy siymosi va ijodiga bag‘ishlangan ko‘rgazma ochildi. Galereyada universitet o‘qituvchi va talabalari tomonidan yaratilgan 100 dan ortiq san’at asarlari namoyish etilmoqda. Buyuk shoir asarlarida mujassam bo‘lgan ezgu g‘oyalarni yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladigan badiiy ekspozitsiya bir oy davom etadi.

Simpozium davomida taniqli olimlar, ijodkorlar navoiyxonlik, adabiyot va kitobxonlik kechalarida qatnashishdi.

Navoiy shahridagi “Farhod” madaniyat saroyida esa musiqali badiiy-ma’rifiy dastur tashkil qilindi. Unda so‘z mulkining sultoni qalamiga mansub asarlar asosida kuylangan mumtoz qo‘shiqlar, dostonlari asosida sahnalashtirilgan badiiy chiqishlar ishtirokchilar qalbiga ko‘tarinkilik ulashdi.

## So‘z – simpozium ishtirokchilariga

**Abdurrahman GUZEL,**
**Anqara shahridagi Boshkent universiteti professori,**
**Alisher Navoiy nomidagi tadqiqotlar amaliy markazi direktori:**



– Alisher Navoiy o‘n beshinchi asrda turkiy olamni yakka adabiy muhitga birlashtirgan edi. Bugungi kun voqeligida O‘zbekiston Prezidenti butun dunyo navoiyshunosligini yagona manba atrofiga birlashtirdi. Bu – hazrat Navoiy g‘oyalari bilan yashashning oliy ko‘rinishi.

Men ushbu xalqaro anjumanning ikkinchi marta o‘tkazilganida ham ishtirok etganman. O‘shanda olgan taassurotlarim samarasi o‘laroq universitetimiz rahbarlari oldiga Alisher Navoiy nomidagi tadqiqotlar markazini tashkil qilish taklifini qo‘ygan edim. Bugun ushbu markazimizda 9 ta shu’ba ish olib bormoqda.

Har gal Navoiy shahriga ushbu anjuman sabab yo‘l olganimda, o‘zimni buyuk shoir huzuriga borayotgandek his etaman. Hayajon, yuksak mas’uliyat hislari bosadi kishini. Daf’atan shunga munosibmisan, haqlimisan, degan savol berasan o‘zingga o‘zing.

Navoiyga borar yo‘l shunday mas’uliyatli va saodatli!

**Bedirxan AHMEDLI,**
**Ozarbayjon Milliy ilmlar akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti Ozarbayjon – Osiyo adabiy aloqalari bo‘limi mudiri:**



– Alisher Navoiy “Nizomiy panjasiga panja urib” ozarbayjon – o‘zbek adabiy aloqalariga asos solgan edi. Xalqaro anjuman butun turkiy xalqlar adabiyoti o‘rtasiga qardoshlikning oltin ko‘prigini qurdi.

Bugun Navoiyni o‘rganmoqchi bo‘lgan kishi O‘zbekistonni kelib ko‘rsin, o‘zbek xalqini bilmoqchi bo‘lganlar Navoiyni o‘qisin, degan bo‘lardim. Negaki, ulug‘ allomaning barcha fazilati, orzu-istaklari bugun bu xalq hayotida namoyon bo‘layotganini dunyo tan olmoqda.

Ushbu anjumanda ishtirok etib shunga amin bo‘ldikki, O‘zbekistonda Alisher Navoiy siymosiga berilgan e’tibor va ehtirom bu yurtda ilm ahliga g‘amxo‘rlik va yoshlar siyosati, yangi Renessansning poydevori qo‘yilayotganini ko‘rsatib turibdi.

**Azizullo AROL,**
**navoiyshunos (AQSH):**

– Men asli Afg‘onistonda tug‘ilganman, AQSH fuqarosiman. Bugungi kunda ilmiy izlanishlarimni O‘zbekistonda davom ettiryapman. Chunki so‘nggi yillarda mamlakatingiz Alisher Navoiy ijodi bo‘yicha tadqiqotlar markaziga aylandi. Eng muhimi, qaysi yurtdan kelmang, bunga rag‘bat bor.



Ilmiy izlanishlarim va dissertatsiyamda shunga amin bo‘ldimki, nafaqat o‘zbek (turkiy) adabiyotini, hatto dunyo adabiyotini ham bugungi kunda Alisher Navoiysiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shoirning tili, o‘zi bizniki, lekin ijodi va dahosi insoniyatning mulkiga aylanib ulgurgan. Hatto davlat arbobi sifatidagi faoliyati ham bugungi kun voqeligida o‘z ahamiyatini yo‘qotmay ibrat maktabi bo‘la oladi, desak, xato emas.

Alisher Navoiyni tarixning murakkab burilish nuqtasi, moddiy ehtiyojlar ustun kelib, millat parokandalikka yuz tutgan davrda dunyoga keldi. Uni birlashtirib, to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi Qutb yulduzi bo‘ldi. Sharq Renessansining asosiy omili shu.

**Said Rizo Jaloliy BALXIY,**
**Prinston universiteti professori (AQSH):**



– Buyuklar tafakkurining ziyosi har doim olis moziydan nur sochib, kelajakni yoritib turadi. Alisher Navoiy ijodi, betimsol dahosi salkam olti asrki, bashar ahliga yo‘l ko‘rsatib, necha-necha avlodlar unga talpinadi. Insonga xos jami fazilatlar sirini ulug‘ mutafakkirning ibrati va ijodidan izlashga ehtiyoj sezadi. Bu ma’naviy ehtiyoj odamzodni ruhni poklovchi chashmaga boshlaydi.

Aslida inson ikki ehtiyojni qanoatlantirish bilan tirik. Lekin ularning qay biri birinchi – moddiylikmi yoki ma’naviylikmi? Alisher Navoiy ijodi va faoliyati bilan mukammal tanishgan inson bu savolga osongina javob topa oladi.

Hozir dunyoda ulug‘ mutafakkir hayoti va ijodini o‘rganish juda ko‘plab rakurslardan olib borilmoqda. Men Alisher Navoiyning betimsol asarlari, ibratli faoliyati bugun ham insoniyat ro‘baro‘ kelayotgan bo‘shliqlarni to‘ldirmoqda, deb bilaman. Salkam olti asr narida turib insoniyatga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish avliyolargagina xos fazilat.

Balxda tug‘ilgan bo‘lsam-da, AQSHda yashab navoiyshunoslik bo‘yicha tadqiqotlar olib bormoqdaman. O‘zbek xalqining tarixi va madaniyati bilan turli ko‘rgazmalar orqali tanishganman. Bu zaminga okean ortidan kelib amin bo‘ldimki, Navoiy, haqiqatan ham, zebo shahar, ko‘rganlarim mohiyatini to‘liq ochib beradi. O‘zbekiston rahbarining maxsus qarori buyuk shoir dahosiga dunyo miqyosida hurmat va ehtiromni yanada yuksaltiradi.

**Temur ESHBOYEV**
(“Xalq so‘zi”).

Sport ● Sport ● Sport ● Sport ● Sport ● Sport ● Sport ● Sport

## Para velosportchilarimiz Osiyoda tengsiz

*Tailandda para velosportning shosse yo‘nalishi bo‘yicha o‘tkazilgan Osiyo chempionatida O‘zbekiston terma jamoasi 12 ta oltin,9 ta kumush va 5 ta bronza,jami 26 ta medalga sazovor bo‘lib, umumjamoa hisobida birinchi o‘rinni band etdi.*



Jumladan, ushbu bellashuvda Aziz Otaxo‘jayev, Marjona Pardaboyeva, Odina Hamdamova, Ruxshona Yoqubova, Aziza Qosimova, Bunyod Hayitmuhammedov, Og‘abek Xudoyberganov va Fotima Saipova o‘z yo‘nalishlarida oltin medalni qo‘lga kiritdi.

Turli yo‘nalishlarda bahslarga kirishgan Zarifa Mo‘minova, Bahodir Odinayev, Shahnoza Hakimova, Jasur Ilhomov, Marjona Pardaboyeva, Fotima Haydarova kumush medalga ega chiqqan bo‘lsa, Saidjabbor Dadaxonov, Jasur Ilhomov, Bunyod Hayitmuhammedov va To‘lqin Ravshanov kabi para velosportchilarimiz bronza medalga sazovor bo‘ldi.

## “Turkish open”: O‘zbekiston vakillari muvaffaqiyati

*Turkiyaning Antaliya shahrida para taekvondo bo‘yicha “Turkish open” xalqaro turniri bo‘lib o‘tdi. “G2” tasnifiga kiruvchi va Paralimpiya o‘yinlariga reyting ochkolari taqdim etuvchi ushbu musobaqada 27 ta mamlakatdan 180 nafar para taekvondochi qatnashdi.*

Mazkur bellashuvda 12 nafar terma jamoamiz a’zosi ishtirok etib, yakunda ularning 9 nafari 1 ta oltin hamda 4 tadan kumush va bronza medallarini qo‘lga kiritdi. Jumladan, Qudrat Muhammadiyev (-80 kg.) oltin medalga ega chiqqan bo‘lsa, Kamola Jo‘rayeva (-57 kg.), Qudratjon Haydarov (-63 kg.), Javohir Aliqulov (-80 kg.) va Asadbek Toshtemirov (+80 kg.) kumush medal bilan taqdirlandi.

Shuningdek, Karima Meliqo‘ziyeva (-57 kg.), Roziya Ergasheva (65 kg.), Muhammadsodiq Usmonov (-63 kg.) va Qudratulla Sunnatov (-70 kg.) shohsupaning faxrli uchinchi pog‘onasidan joy oldi.

## Yurtimiz polvonlari shohsupaga ko‘tarildi

*Xorvatiyada sport kurashlari bo‘yicha Gran-pri turniri tashkil etildi. Ushbu musobaqaning yunon-rum kurashi bahslarida Alisher G‘aniyev va Aytjan Xalmaxanov yurtimiz sharafini munosib himoya qildi.*



Xususan, O‘zbekiston terma jamoasi a’zosi A. G‘aniyev 60 kilogrammgacha vaznda kumush, A. Xalmaxanov esa 63 kilogrammgacha vazn toifasida bronza medalini qo‘lga kiritdi.

## “Fujayra Open – 2025”: musobaqaning ilk kunida uch medal

*Kecha BAAning Fujayra shahrida taekvondo WT bo‘yicha “G2” tasnifidagi “Fujayra Open – 2025” musobaqasining kattalar ishtirokidagi bellashuvlariga start berildi.*



Erkaklar o‘rtasida tashkil etilgan ilk kungi bahslarda O‘zbekiston terma jamoasining sakkiz nafar sportchisi g‘oliblik uchun dayangga ko‘tarildi. Unda vazni 80 kilogrammgacha bo‘lgan Jasurbek Jaysunov barcha raqibidan ustun kelib, oltin medalni qo‘lga kiritdi. Shuningdek, Najmiddin Qosimxojiyev kumush, Yodgorbek Jo‘raboyev (74 kg.) esa bronza medalga sazovor bo‘ldi.

**“Xalq so‘zi”.**

# AKT yangiliklari

## “E-KON” axborot tizimi – tanlov g‘olibi

*Xalqaro professional IT hamjamiyati – “Global CIO” tashkil etgan xalqaro tanlovda “O‘zbekneftgaz” AJ tomonidan amalga oshirilgan “E-KON” loyihasi yoqilg‘i energetika sohasidagi “Yilning eng yaxshi loyihasi”,deb e’lon qilindi.*




Raqamli texnologiyalar vazirligidan xabar berishlaricha, bu natija O‘zbekistonning raqamli transformatsiya yo‘nalishida erishgan yutuqlaridan biri sifatida tarixga kirdi va mamlakatning nafaqat ichki, balki xalqaro maydondagi nufuzini yanada mustahkamladi.

Mazkur loyihaning asosiy maqsadi – “O‘zbekneftgaz” AJ tasarrufidagi konlarni raqamlashtirish orqali samaradorlikni oshirish. Loyiha doirasida shu kunga qadar “E-KON” axborot tizimi ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilindi. Jamiyat tasarrufidagi neft va gaz qazib chiqarish boshqarmalarida umumiy hisobda 80 ta gazni tayyorlash qurilmasi qurib bitkazildi. Buning natijasida quduqlardan qazib chiqarilayotgan tabiiy gaz parametrlarini real vaqt rejimida onlayn nazorat qilish hamda zarur bo‘lganda, favqulodda choralar ko‘rish imkoni yaratildi.

Ma’lumot uchun, “Global CIO” xalqaro tanlovi har yili dunyoning eng ilg‘or va samarali IT loyihalarini aniqlash, ularni keng ommaga tanishtirish maqsadida o‘tkaziladi. Unda texnologik sohadagi eng yaxshi amaliyotlar, innovatsion qarorlar va raqamli transformatsiya loyihalari saralanib, xalqaro miqyosda e’tirof etiladi.

## Sun’iy intellekt imkoniyatlari

*Poytaxtimizda xotin-qizlarni IT sohasiga jalb qilish, ularning bilim va dunyoqarashini kengaytirish,qiziqish va layoqatiga mos ravishda yo‘nalish tanlashda yordam berish maqsadida “Ayollar IT” klubining navbatdagi uchrashuvi tashkil etildi.*



“Sun’iy intellektning ish samaradorligini oshirishdagi roli” mavzuidagi ushbu tadbirda mutaxassislar sun’iy intellektning asosiy tamoyillari, uning turli sohalardagi amaliy qo‘llanilishi hamda kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlari haqida tushunarli va qiziqarli tarzda ma’lumot berdi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar sohasida xotin-qizlarning o‘z yo‘nalishini tanlashi va texnologik imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanish borasida muhim tavsiyalar berildi.

## Yoshlarning sevimli maskani

*Sirdaryo viloyatida yangi tashkil etilgan “IT-shaharcha”da yoshlarning AKT bo‘yicha ilg‘or bilim va kasblarni o‘zlashtirishi uchun zarur shart-sharoitlar mavjud.*




Ushbu maskan zamonaviy texnologiyalar asosida jihozlangan bo‘lib, bu yerda yiliga 1,5 mingdan ziyod yoshlar dasturlash, grafik-dizayn kabi sohalarda bilim olishi mumkin. Shuningdek, talabgorlar ingliz tili va boshqa xorijiy tillarni ham bepul o‘rganish imkoniyatiga ega.

Ayni paytda Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan “IT-shaharcha”dagi o‘quv auditoriyalari, laboratoriyalar va amaliy mashg‘ulotlar xonalarida yoshlarning zamonaviy texnologiyalar bo‘yicha malaka oshirishi, sohada ish topishi va xalqaro bozorga chiqishlari uchun keng imkoniyatlarni yaratish ustida ish olib borilmoqda.

Vazirlik ma’lumotiga ko‘ra ta’limni yanada samarali yo‘lga qo‘yish, xususan, shaharchada “BPO” (Business Process Outsourcing) markazini tashkil etish, shu orqali bitiruvchilarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ish o‘rinlari yaratish va ularni masofaviy ishlashga jalb qilish rejalashtirilgan.

**Rahim ShERQULOV**
**(“Xalq so‘zi”).**

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti jamoasi institutning Neonatologiya kafedrasi professori Zuhra Rahmonqulovaga onasi
**Nosira TULENOVAning**
vafoti munosabati bilan chuqur ta’ziya izhor etadi.

**Buyuk Britaniyaning nufuzli “Hertfordshire Press” noshirlik uyida iste’dodli o‘zbek yozuvchisi Gulchehrabegim Mahmudovaning “Buyuk Ipak yo‘li afsonalari: zamon ruhi sarguzashtlari” nomli kitobi taqdimoti o‘tkazildi.**

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229.
Buyurtma G-242. 15 329 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir A. Soyibnazarov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘zA yakuni — 21.00 Topshirildi — 23.40 1 2 3 4 5 6